

– Maqola va she'rlarim bu gazetada tez-tez chop etiladi. Singillarim ham menga havas qilib, maqolalar yozishyapti. Bu yil yana unga albatta obuna bo'lmoqchimiz, – deydi Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

Umida SHARIPOVA



2007-yil

3 – 9-sentabr

N:36

(66629)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan



**SALOM, ASSALOM,
MAKTAB!**

Muhiddin OMON

Salom, maktab, jon maktab,
Bilimlarga kon maktab.
Aql-u odob, tarbiya
Berguvchi makon maktab.

Sog'lom bo'l-u polvon bo'l,
El-u yurtga posbon bo'l.
Bel olishsang maydonda,
Or-nomusi osmon bo'!

Bu tilakka labbay, deb
Javob beraman tayin.
Ma'rifat ziyosidan
Ulg'ayapman kun sayin.

Ustozlarim mehribon,
O'qi, derlar bearmon.
Sen istiqlof farzandi,
Barkamol bo'l, bolajon!

Vatanning baxti uchun
Sarf aylagin bor kuching.
Olib elning duosin,
Ravo qil muddaosin.

O'zbekiston nomini
Jahonga qilgum doston.
Chunki boshqa topilmas,
Dunyoda bunday bo'ston!




Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyunda «Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Ushbu mukofot yurtimiz yoshlari, iqtidorli qizlarning hayotida ijtimoiy hodisa sifatida qabul qilindi. Bu esa hukumatimiz tomonidan yoshlarga va ularning kelajagiga ko'rsatilgan katta e'tibor va g'amxo'rlik timsolidir.

O'tgan 8 yil davomida mukofot sohibalarining soni 112 nafarga yetdi.

Ulug' va aziz bayramimiz – Mustaqilligimizning 16 yilligiga bag'ishlab O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan 2007-2008-o'quv yilida Oliy o'quv yurtlariga imtiyozli tarzda qabul qilingan Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibalarini qutlash marosimi o'tkazildi. Ushbu yilda 9 nafar mukofot sohibalari turli yo'nalishlarda imtiyozli tarzda Oliy o'quv yurtlariga qabul qilindilar.

Jamoamiz va muxlislarimiz nomidan ularni bu katta baxt bilan qutlaymiz.

O'z muxbirimiz



Bizga maktub yo'llabsiz...

Men respublikamizning chekka bir qishlog'ida yashayman. Endi qishlog'imizni «chekka qishloq» deb atasam, yarashmas. Chunki bu yerdan «asr mo'jizasi» deb nomlanayotgan yangi temir yo'li o'tkazildi. Bu bizni qalbimizda g'urur va iftixor hislarini uyg'otadi. Temir yo'l bekatlarining zamonaviy tarzda bezatilishi, ayniqsa, qishloq bolalarining maktabga qatnab qiynalmasliklari uchun yangi maktablarning barpo etilishi nur ustiga



QISHLOG'IMIZGA BIR KELING...

a'lo nur bo'lmoqda. Biz yoshlar uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan kollejlarni aytmaymizmi? Qolaversa, O'zbekistonda yagona bo'lgan «Kaliy zavodi»ning aynan qishlog'imiz yaqinida qurilishini eshitib, nihoyatda xursand bo'ldik. Mustaqilligimiz sabab, yurtimizning chekka go'shalarining bu tarzda obod qilinishi barchani quvontirmay iloji yo'q. Mening buvim Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Bu o'zgarishlarni ko'rib, ularning ko'zlarida ham beixtiyor yosh aylanadi va bu kunlarga shukronalar aytadilar. Biz - istiqloq farzandlari, ona vatanimiz rivojiga hissa qo'shmog'imiz, buning uchun esa tinmay izlanishimiz, o'qishimiz darkor!

Nigora TOG'AYEVA, Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumanidagi Agrosanoat kolleji talabasi

- Maktabga borsam, ustozlaringa ana shunday chiroyli gullar sovg'a qilaman, - deydi to'rt yoshli Sardor.



Qadrli «Tong yulduzi»! Xat yozishni bilmaganim uchun buvijonim bilan birgalikda senga maktub yo'llayapmiz.



O'QITUVCHIMNI YOQTIRIB QOLDIM

Sentabr oyini ko'p kutdim. Bog'chada uxlashni xohlamasligimni bilib, adajonim: «Sentabrda maktabga chiqasan, maktabda seni uxlatishmaydi», deya meni xursand qilgan edilar. Rostdan ham maktab bog'chaga o'xshamas ekan. 30-avgust kuni maktabimizda yig'ilish bo'lib o'tdi. Sinfdoshlarimning hammasi menga o'xshab kiyinib olishibdi. Shu kuni bizga ustozimizni tanishtirishdi. Ismlari Rohila Muhammadjonovna ekan. Ular ham hammamizning ismimizni so'rab, bilib oldilar. Ustozimiz bilan 1-sentabr - Mustaqillik kunini o'tkazib olgandan so'ng, yaxshi kayfiyat bilan o'qishni boshlashga kelishib oldik. Rohila opa bizga Vatanimiz O'zbekiston ekanligini, biz hech kimga qaram emasligimizni, o'zimiz yashayotgan uyimizni, maktabimizni avaylab-asrashimiz, ardoqlashimiz kerakligini muloyimlik bilan tushuntirdilar. Agar biz maktabda a'lo baholarga o'qisak, kelgusida Vatanimiz dovrug'ini dunyoga tanitadigan inson bo'la olishimizni aytdilar. Ustozimiz gaplarini tinglab, ularni yaxshi ko'rib qoldim. Endi ularni aytganlarini qilib, 1-sinfdan a'lo bahoga o'qiyman. Vatanim O'zbekiston uchun foydasi tegadigan inson bo'lib ulg'ayaman. Do'stim «Tong yulduzi»ga esa maktabimdagi yangiliklardan yozib turaman.

Azamatbek SANJAR o'g'li, Yunusobod tumanidagi 51-maktabning 1-sinf o'quvchisi

RAYHONANING YUTUG'I

Maktabimiz o'quvchisi Rayhona O'rinova tumandagi «Amir Temur» nomli taekvando klubi mashg'ulotlariga qatnay boshlaganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, yaxshi natijalarga erishdi. Uning ustozlari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy Abduvohid Hasanboyevning xizmati tufayli Rayhona bir necha marotaba tuman va viloyat miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda sovrinli o'rnlarni egalladi.

Yaqinda Toshkentda bolalar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston ochiq chempionatida 7-8 yoshlilar bahslarida Rayhona bronza medali sohibi bo'ldi.

Maktabimiz obro'sini ko'tarayotgan Rayhonaga xalqaro turnirlarda ham ishtirok etib, O'zbekistonimiz sha'nini dunyoga taratishiga tilakdoshmiz.

Ikromjon RAHMATOV,

Farg'ona viloyati, Yozyovon tumanidagi 2-o'rta maktabning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

YANGI DUGONAM

Ta'til kunlarim juda maroqli o'tdi. Hammadan ham dugonalarim soni yana-da ortganidan xursandman. Qanday qilib, deysizmi? Keling, yaxshisi bir boshdan gapirib bera qolay: Buvimnikiga mehmonga borgandik. Avvaliga biroz zerikdim. Ertasi kuni esa Robiya ismli bir qiz bilan tanishib qoldim. U Uchtepa tumanidagi 455-maktabning 4-sinfida o'qir ekan. Tez orada u bilan shunchalik qadrdonlashib ketdikki,


ko'rganlar bizni ancha yillik dugonalar, deb o'ylashlari aniq edi. Bekinmashoq, arqon sakrash kabi o'yinlardan zerikib, kim ko'p kitob o'qishga kirishib ketdik. Qarabsizki, «Qalpoqcha», «Tulki va toyloqcha», «O'lmas botir», «Maqtanchoq quyon» kabi kitoblarni uch kunga qolmay o'qib chiqibmiz.

Mana, yangi o'quv yilini ham boshlab yubordik. Endi sinfdoshlarimga yangi dugonam hamda o'qigan kitoblarim haqida so'zlab beraman.

Dildora ABDUVOITOVA, poytaxtdagi 324-maktabning 3-«M» sinf o'quvchisi



SHAHIDLARNI YOD ETISH - BURCHIMIZ!




Aziz tengdoshlarimni kuni kecha keng tantana qilingan istiqlolimiz shodiyonasi bilan qutlayman. Darvoqe, 31-avgust nafaqat Mustaqilligimiz e'lon qilingan kun, balki «Qatag'on qurbonlarini xotirlash kuni» hamdir. Yurtboshimizning 1999-yil 12-maydagi 121-Qaroriga binoan Shahidlar xotirasi maydoni barpo etildi va 2000-yil 12-may kuni foydalanishga topshirildi. Maydondan joy olgan moviy gumbaz ichiga qimmatbaho Oniks toshi qo'yilgan. Erondan maxsus keltirilgan bu juda noyob tosh kechasi o'zidan nur taratib turadi. Bu shu maydonda qatl etilganlarning xotirasiga qo'yilgan ramziy qabr toshidir. 2002-yili bu maydonda Mustaqillik bayrami arafasida «Qatag'on qurbonlari muzeyi»ning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. 8 oyda qurib bitkazilgan mazkur muzey o'zida qatag'on yillarining dahshatini, o'sha davr muhitini to'laligicha aks ettira olgan.

Muzeyda mehnat qilayotgan Shoir opa Fayziyeva, Nodira Sobirova va Dilrabo Alimberdiyevlar bilan hamsuhbat bo'lib, talaygina ma'lumotlarni bilib oldim.

- Bu yerlar avval «Alvasti ko'prik» deb atalgan ekan. Chunki changalzorlar, chaqir tikanaklar alvastini eslatarkan. Odamlar bu yerga kelish u yoqda tursin, uning yaqinidan o'tishga ham qo'rqishgan. 1975-yillardagina bu yerga mahallalar qurila boshladi. Keyin esa mana bunday ko'rkam xiyobon barpo etildi, - deya hikoya qildilar Shoir opa.

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA



– Yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, kelajagini kitoblarsiz tasavvur etish qiyin. Bu boradagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashangiz.

– Beshikdan to qabrgacha ilm izla, deyishadi. Lekin ilm tog'-u sahrodan yoki quduqdan izlanmaydi-ku. Ilm – kitoblarda! O'z xalqini, yoshlarini ilmi qilaman, degan millat kitobchilikka, ya'ni noshirlik va matbaachilikka katta e'tibor qaratadi. Iftixor bilan aytish mumkinki, bu soha mamlakatimizda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Ayrim bolalar kitobga ehtiyotsizlarcha munosabatda bo'lishadi. Uni yaratish uchun qanchadan-qancha insonlarning mehnati singgani haqida o'ylab ham o'tirishmaydi. Shu o'rinda aziz bolajonlarga kitobning yaratilishi haqida birozgina tushuncha berib o'tmoqchiman. Biror adibning yangi asarining qo'lyozmasi nashriyotga topshiriladi. U yerdagi tajribali muharrirlar qo'lyozmani o'qib, tahrir qilishadi. Rassom va dizaynerlar unga bezak berishadi, rasmlar ishlashadi, muqovasini tayyorlashadi. Texnik muharrirlar kitobning satrlari, hoshiyalari, bezag-u belgilarining joy-joyiga qo'yilishini nazorat qilishadi. Musahhihlar imlosini tekshirishadi. Kompyuterda sahifalovchilar kitobning qog'ozdagi ko'rinishini taxt qilishgach, bosmaxonadagi kitob chop etadigan mashinalarda bosiladi.

Xullas, bitta kitob qirqdan ortiq kishining mehnati bilan yaratiladi. Nashriyot xodimlari noshirlar, bosmaxonada kitobni chop etuvchilar esa matbaachilar deb ataladi.

Bu o'ta sharaflil va xayrli kasbga mehr qo'rganlar aslo kam bo'lmaydilar. Hozir mamlakatimizda 60 dan ziyod nashriyot, undan ham ko'proq bosmaxonalar

Maroqli suhbat

«ILM SAHRODA EMAS...»



Aziz bolajonlar, yozgi ta'til kunlarini maroqli o'tkazdingizmi? Endi navbat puxta bilim olishga, shundaymi? Buning uchun esa birinchi navbatda zarur shart-sharoitlar, sifatli darsliklar kerak bo'ladi. Bularning barini kattalar siz miriqib dam olayotgan kunlaringizdayoq taxt qilib qo'yishgan.

Ana shunday fidoyi insonlardan biri «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh muharriri Ahror AHMEDOV bilan qilgan suhbatimiz ham kitoblar mavzusida bo'ldi.

faoliyat yurityapti.

– **Kitobga oshno bo'lgan kishi hayotdan go'zallik topadi, shunday emasmi?**

– «Sharq» kompaniyamizda azaldan bolalar uchun kitoblar chop etishga alohida e'tibor qaratib kelinadi. Sababi, yuqorida aytganim, har bir millatning kelajagi yoshlar qo'lida. Ularni esa faqat kitob bilan ilmi qilish mumkin. Ilmi yoshlar millatini ham, mamlakatini ham ko'klarga ko'taradi. Bolalar uchun 100 dan ziyod ertak kitoblari nashr etdik. O'smirlar uchun esa «Maktab kutubxonasi», «Sevishganlar kutubxonasi», «Jahon sarguzasht adabiyoti» kabi seriyalarda ko'plab kitoblar chop etdik. Bog'cha yoshidagi bolalar uchun «Bog'chaga – do'mboqchaga» degan umumiy nomdagi rangli asarlar yaratdik. Hozir, ayniqsa, bolalar dunyoqarashini kengaytiradigan, tafakkurini shakllantiradigan mavzularga e'tibor kuchaytirilyapti.

Ensiklopediyalar, aqlni charxlashga yo'naltirilgan o'yinli yangi kitoblar, kompyuter savodxonligi, o'quv adabiyotlari va qo'llanmalar chiqarilyapti.

– **«Tong yulduzi» gazetasini muntazam kuzatib borasiz. Uning yutuq va kamchiliklarini nimalarda ko'rasiz?**

– Bu gazetani bolaligimdan yaxshi ko'raman.

Unda ko'plab maqolalarimiz chiqqan. Shundan beri qadrdonmiz u bilan. Gazeta bolalarni turli tashabbuslarga boshlovchi tadbirlarga e'tiborni kuchaytirishi kerak, deb o'ylayman.

– **O'quvchilarimizga tilaklaringiz.**

– Gazeta o'quvchilari Mustaqillik farzandlaridir. Bu ne'matni qadrlashga esa siz-u biz gazeta orqali o'rgatishimiz lozim. Ularga aytar so'zim – kitobni seving! Chunki u sizni to'g'ri va yaxshi yo'llarga boshlaydi.

Feruza JALILOVA suhbatlashdi

Shoyim BO'TAYEV

USTA VA CHARXPALAK

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.



(Ertak-qissa)

Uch-to'rt kishilashib narvonni tortib olmoqchi bo'lishdi. Narvon chiqmadi. Vayronalar orasida ham qandaydir bahaybat bir kuch uni o'zi tomon tortib turganday edi.

Bu kuch Ajal bo'lgan ekan.

Qo'yvormay turarkan.

Tortayotganlarning jahllari chiqdi. Ular ko'plashishdi. Yanayam ko'plashishdi. Butun qishloq ahli Ustaga ko'maklashib, narvonni Ajal domidan tortib olmoqchi bo'lishdi.

Axiyri, narvon sug'irilib ketdi.

Ammo uning yarmi yo'q edi. Husanlar qismi vayronalar orasida uzilib tushib qolgan edi. Usta

endi olti poyali bo'lib qolgan narvonni ko'targancha uyga jo'nadi.

USTAGA SHAKKOKLIK

Ayiq odamning uyi vayronasi ostida narvonning sinib uzilib tushgan qismini kavlab olishga Ustaning hafsalasi yetmadi. Kavlab olsa ham bo'lardi-yu, narvon bahonasida boshqa narsalarni ham olib ketib qolgansan, degan gap-so'zlar chiqishidan hayiqdi.

Garchi Ustaning o'zi juda dovyurak, qo'rqmas bo'lsa-da, tuhmat bor joyga yaqin yo'lmaslikka urinardi.

U donishmand ham edi.

Yaxshini yomon yengishi va ezgulikni yovuzlik yo'qotishi mumkinligini bilardi.

Nur ustini ba'zan zulmat qoplashini, shularga o'xshash barcha hodisalarning vaqtinchaligini ham yaxshi bilardi.

Lekin tuhmatni u barchasidan xavfliroq hisoblardi. Negaki, tuhmat pinhoniyydir, yashirindir. Shu sababli, har xil tuhmatlar bo'lishi mumkinligini o'ylab, Usta vayrona ostida qolgan narvonning yarmidan voz kechib qo'ya qoldi. Aslida, ulardan ham ayb o'tgan edi. Husanning Oymomoga javoblari, Yaratganini tan olmaganini, Ustaga shakkokligi bunga sabab bo'lgandi.

BEKORCHILIK

Usta narvonning qolgan qismini ko'tarib kelib, hovlisining bir chetiga tashlab qo'ydi. Ko'nglidan, shu narvonni yasamasam ham bo'lar ekan, degan fikr kechdi.

Usta o'z ishi bilan ketdi.

Kalta bo'lib qolgan narvonning hech kimga keragi bo'lmay qolgandi.

Tomga qo'yib chiqish uchun narvon kaltalik qilardi.

Tomga qo'yilmasa narvon boshqa nima ishga ham yarardi, deysiz? Axir har bir narsaning o'z xizmat vazifasi bor: chelak suv olish uchun, tandir non yopish uchun, qozon ovqat pishirish uchun, charx ip yigirish uchun yaratilganidek, narvon ham o'z navbatida tomga chiqish uchun zarur.

– Qiyin, qiyin, dunyoda kalta narvonlarga qiyin ekan, – dedi uchinchi Hasan nimadandir xulosa chiqargandek bo'lib.

– Shunisigayam shukur qilish kerak, – xo'rsinib qo'ydi o'rtancha Hasan-Husanlarning Hasani.


Falokat yuz bergan chog'ida fojiga yo'liqishgan ukalariga hammadan ham yaqin turgani shu Hasan edi. Shu bois, u hamon o'ziga kelolmayotgandi.

– Bekorchi temirni zang bosadi, – dedi ikkinchi Hasan gapni uzoqdan olib.

– Ish bo'lmay shunaqa turaversak, bizniyam qurt bosib ketmasa, deb qo'rqaman, – dedi to'rtinchi Hasan.

(Davomi bor.)

DUNYO KEZAYOTGAN MAFTUNA



Maftuna (o'rtada) dugonalari bilan.

4 yoshli Maftuna bir necha kundirki, betob. Ishtahasi yo'q, bo'shashib yotaverganiga ham 3-4 kun bo'lib qolgandi. Onasi Zamira opa va dadasi Erkin aka bolaning bu ahvolidan tashvishga tushib, darhol shifoxonaga olib borishdi. Qizchaga Gepatit - «A» tashxisini qo'yishdi.

Bir necha kungi muolajalardan so'ng ona-bola uya qaytishdi. Ammo jajji Maftunaning kuch-quvvatga to'lib ketmayotganidan tashvishlangan ona yana bolasini ko'tarib shifoxonaga boradi. Ular qizchani tekshiruvdan o'tkazgach, immuniteti pasayib ketganligini aytishdi. Kerakli doridarmonlar yozib berishdi.

- Oradan bir yil o'tsa-da, bolamning sog'lig'i baribir yaxshi emasdi, - deya hikoya qiladi Maftunaning onasi Zamira opa. Shunda qizimni shahrimizdagi «Marvarid» suzish maktabiga olib bordim.

Maftuna To'xtasinova 1994-yilda Andijon shahrida tug'ilgan. 5 yoshidan boshlab suzish to'garagiga qatnagan. Shahardagi 34-ixtisoslashgan maktabning 1-sinfiga o'qishga borgan. U suzishning ilk saboqlarini Andijon shahridagi «Marvarid» (BO'SM) Bolalar va o'smirlar sport maktabining suv sporti murabbiyi Murodjon Abdullayevdan o'rgangan. 10 yoshida chempion unvoniga sazovor bo'lgan. Hozirda Maftuna mamlakatimizning bir necha karra chempioni. Suv sportining chalgancha, baterfley, kompleks, erkin va brass usulida bemalol suza oladi. Malayziya, Avstriya, Germaniya, Singapur kabi qator davlatlarda o'tgan o'smirlar o'rtasidagi musobaqalarda bir necha oltin va kumush medal sohibasiga aylangan. Ayniqsa, u Germaniyada o'tgan bellashuvlarda 4 ta oltin medal bilan ko'ksini to'ldirganida, uning mahoratiga raqiblari ham yuksak baho berishgandi. 2006-yil Maftuna uchun yana-da omadli keldi. Axir 12 yoshli suzuvchi qizaloq Qatar davlati Dohada o'tgan XV Osiyo o'yinlarining qatnashchisi bo'ldi. Bugun esa Maftuna Xitoyda o'tadigan XXIX yozgi Olimpiyadaga tayyorlanmoqda.

Zamira opaning hikoyasi nima bilan tugar ekan-a, deb o'zim ham qiziqib qolgandim.

Keling, yaxshisi hikoyaning davomini Maftunabonu To'xtasinovaning o'zidan eshitaylik:

- Sportchi bo'lib qolishimga sariq kasal bilan og'riganim sabab bo'lgan. O'shanda onajonim rosa yelib-yugurgan ekanlar. Bu haqda 7-8 yoshimda hikoya qilib berganlarida, dunyoda onamdan mehribon odam yo'q, deb ich-ichimdan hayajonlangandim.

Chempion bo'lib dunyoning ko'p mamlakatlarida bo'lganimdan suyunaman. Hozir biz oilamiz bilan poytaxtda yashaymiz. Bilasizmi, bu yerga ko'chib kelganimizning ikkinchi haftasidayoq zerikdim. Buvijonim va Usmonjon bobom tez-tez tushimga kiraverishdi. Dugonalarim Ra'no, Malika Mushtariyonu, do'stim Begzodni ko'rgim kelaverdi. Vaqtim tig'iz bo'lishiga qaramay, Andijonga do'stlarim oldiga bordim. Ikki-uch kun mazza qilib ular bilan o'ynab-kuldim. Hozir men O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport

jamiyatiga qarashli suv sport turlariga ixtisoslashgan Olimpiya zaxiralari Bolalar va o'smirlar sport maktabida o'qiyapman. Sport maktabimiz direktori Tatyana Mamatqulova va murabbiyim Konstantin Lyagindan minnatdorman. Yaqinda «Olimpiyada - 2008» musobaqalariga yo'llanma beradigan bir necha xalqaro musobaqalarda qatnashaman. Ularda albatta Vatanimiz sharafini munosib himoya qilaman. O'tonam mening shu kungacha erishgan natijalarimdan quvonib, shunday deydilar: «Yurtboshimiz bolalar sportiga g'amxo'rlik qilayotganlaridan dalolat bu».

Yaqinda «Marvarid» suzish maktabimizning suv havzasi dunyo standartlariga mos keladigan darajada to'liq ta'mirdan chiqdi.

Sportda erishayotgan yutuqlarim uchun menga homiylik qilayotgan saxovatpesha insonlar Sodiq Ilhomovdan hamda sport fidoyisi Ravshanbek Haydarovdan cheksiz minnatdorman.

Ma'mura MADRAHIMOVA

Yodgoralar

TUSHDAGI SHOKOLAD

- Dada, tushimda menga kichkina shokolad olib beribsiz.
- Agar aqlli bola bo'lsang, tushingda albatta katta shokolad ham olib beraman.

BILAG'ON

- Oyi, oyi, men beshta pashsha o'ldirdim, - maqtandi onasiga Abdurahmon. - Ulardan ikkitasi o'g'il bola, uchtasi qiz ekan.
- Iye, sen buni qayerdan bilding? - ajablanib so'radi onasi.
- Ikkitasi pivo idishiga, uchtasi esa ko'zguga qo'nib turgan ekan-da.

Yodgora SODIQOVA,
8-«G» sinf o'quvchisi



Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 106-o'rtta maktabda ijodkor o'quvchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun ham maktab qoshida «Nihol» to'garagi ochilgan. 1998-yili ish boshlagan mazkur to'garakni ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Marg'uba Shomiddinova boshqaradilar. Quyida ana shu to'garak a'zolari ijodidan namunalar o'qisiz.

Tengdoshlaring ijodi

TABIAT

Tabiat bizga ona,
Boshimizda parvona.
To'rt ajoyib fasli bor,
Zavq-u shavqi betakror.
Dillarga xush yoqadi,
Zilol suvi, havosi.
Har giyoh, o't-o'lani,
Ming bir dardning davosi.
Boylklari behisob,
Noz-u ne'mati bisyor.
Tabiatni asrashdek,
Sharafli burchimiz bor.

Sevara BAXTIYOROVA,
6-«A» sinf o'quvchisi



YOZ GASHTI

Har faslning o'z gashti,
Xislati bor dunyoda.
Ammo quvnoq yozimiz,
Barchasidan ziyoda.
Cho'milib, xo'p chiniqib,
Qumdan uylar quramiz.
Mevazorlar oralab,
Yoz gashtini suramiz.

Saodat RO'ZIYEVA,
6-«A» sinf o'quvchisi



BORMI SIZGA MENING MALOLIM?

Kunda bir bor sizni ko'rmoq istayman,
Bosgan izingizdan yurmoq istayman.
Qalbingiz to'rida turmoq istayman,
Aying, bormi sizga mening malolim?
Ko'zlar uchrashganda bir o't chaqaydi,
Uning otashidan yurak qaqqashaydi.
Ishqim yonayotgan shanga o'xshaydi,
Aying, bormi sizga mening malolim?
Bilmam, sizsiz mening ne kechar holim,
Siz mening borlig'im, sizga zavolim.
Xayolga cho'mdirsin o'tli savolim,
Aying, bormi sizga mening malolim?

Sitora ISOMIDDINOVA,
8-«D» sinf o'quvchisi



OILANG OBOD BO'LSA...

Qanday yaxshi, oila
Hamjihah bo'lsa.
O'tajak har bir kuni,
Quvonchga to'lsa.
Shunda har bir xonadon,
Nurga to'ladi.
Mahalla osoyishta,
Yurt tinch bo'ladi.

Aqida JO'RAYEVA,
6-«A» sinf o'quvchisi



QIZLARNI HURMAT QILASIZMI?

Nima bo'libdi-yu, mahallamiz bolalari qo'shni mahalla bolalari bilan xafalashib qolishibdi. Sababini surishtirsam, orqa ko'chadagi bolalar mahallamiz qizlarini yomon so'zlar bilan ranjitishganmish.

– Doim birgalikda o'ynardingiz. Xafalashish yaxshi emas, darhol yarashib olinglar-chi, – deya tanbeh bergan bo'ldim ularga.

– O'zlarini qarang, nega qizlarni xafa qildingiz, desam: «Senga nima, opangmi yo singlingmi ular? Mabodo birortasi yuragingdan urib qolmaganmi ishqilib?» – deya jahlimni chiqarishyapti, – dedi hammani ortidan ergashtirib yuradigan Shuhrat ismli bola. – To'g'ri, ular opa-singilmmas, lekin mahallamiz qizlarini himoya qilish bizning burchimiz-ku, axir...

Dastlab bolalarning qilmishidan biroz ranjigandim. Lekin jajjigina Shuhratjonning burch haqidagi fikrlarini eshitib, g'ururlanib ketdim. Hozirdanoq mahallasi sha'ni uchun qayg'urayotgan bolakaylarning ertaga haqiqiy yurt sha'ni himoyachilari bo'lib kamol topishlariga shubham yo'q.

Jajjilarning fikrini eshitdim. Xo'sh, ulardan biroz kattaroq bolalar bu xususda qanday fikrda ekanlar? Qizlarni hurmat qilasizmi? Sinfingizdagi qizlarni ranjitmaysizmi? Shu kabi savollar bilan bir necha tengdoshlaringizga murojaat qildik:

Javohir ZOKIROV, 8-sinf o'quvchisi:

– Albatta, hurmat qilaman. Sinf rahbarimiz, bir-biringiz bilan ahil bo'linglar, deya nasihat qiladilar doim. Yana bir yildan so'ng maktabni bitirib, hammamiz har yoqqa tarqalib ketamiz. Dadamning maktabni bitirganlariga 30 yil bo'libdi. Har yili sinfdoshlari bilan uchrashadigan kunni sabrsizlik bilan kutishlarini ko'rib, ularga juda havasim keladi.

Ilhom MURODOV, 5-sinf

o'quvchisi:

– Qizlar chaqimchi bo'lishadi. Darsdan qochsak o'qituvchimizga, mahallada sho'xlik qilsak otanamizga chaqib beraverishadi. Shuning uchun ularni hurmat qilmayman.

Olim KOMILOV, 6-sinf o'quvchisi:

– Men-ku, sinfimizdagi qizlarni xafa qilmayman. Lekin Begzod ismli bir bola bor, qizlarni sochidan tortib, papkasini tepib yuradi. Ayniqsa, Iroda ismli bir qizni juda ko'p xafa qiladi. Bunday qilmagin desam, Irodani sevib qolibdi, deya mazax qiladi. Hurmatni boshqacha tushunishgani yomon-da.



Saida'lo BAHROMOV, 6-sinf o'quvchisi:

– Sinfda sinfboshiman. Qizlarni o'zim ham hurmat qilaman, boshqalardan ham shuni talab qilaman. O'g'il bolalar xafa qilayotgan qizlarning o'rniga o'z opangiz yo singlingizni qo'yib ko'ring. Birov ranjitsa chiday olarmikinsiz, deyman ularga.

Siz-chi, shovvozlari, qizlarni hurmat qilasizmi? Ularning qay jihatlarini qadrlaysiz? Shular haqida bizga yozib yuboring, maktublaringizni kutamiz.

FERUZA yozib oldi

BUGUNNING



Gazetamizda «Bugunning yangi avlodlari» ruknini tashkil etdik. Unda sizlarni «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan Respublika Bolalar ijodiyoti festivali g'oliblari bilan tanishtirib boramiz.

Ulardan o'rnak oling, tenglashing va do'stlashing!

«YANGI AVLOD»LARI

Lyashko Yana Stanislavovna 16 yoshda. V.Uspenskiy nomidagi musiqa litseyining 1-kurs talabasi, 2004-yilda ilk bor o'tkazilgan «Yangi avlod» festivali g'olibi.

Hayotdagi shoiri:

doimo olg'a intilib, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish.

Yoqtirgan fani: arfa cholg'u asbobi.

Kitobi: Bulgakovning «Usta va Margarita», Alisher Navoiyning «Lison-ut tayr».

Filmi: «So'qir musiqachi», «Sen yetim emassan».

Qo'shiqchisi: Shakira va Larisa Moskalyova.

Sport turi: badiiy gimnastika.

Taomi: spagetti va osh.

Rangi: moviy – bu rang unga musaffolik va ozodlik ruhini beradi.

Xorijiy tillari: ingliz va o'zbek tillarini mukammal o'rganishga harakat qilmoqda.

San'atdan tashqari qiziqishlari: bo'sh vaqtida raqs bilan shug'ullanishni,



milliy va jahon raqslarini ijro etishni xush ko'radi.

Kelajakda taniqli arfa ijrochisi bo'lishni xohlaydi. Musiqaning aynan shu turini rivojlantirish va arfa maktabini tashkil etish uning eng katta orzusidir.

– 5 yoshligimda ota-onam meni teatrda olib borganlarida arfa asbobini chalayotgan musiqa ijrochisini ko'rib, shu asbobga mehrim tushdi. Shundan so'ng, men o'z oldimga mohir arfa ijrochisi bo'lishni maqsad qilib qo'yib, hozirda men ana shu maqsadim tomon intilmoqdaman, – deydi Yana ishonch bilan.

Bobur NAZARMUHAMMEDOV tayyorladi

OZ-OZ O'RGANIB, DONO BO'LUR

Yosh do'stim, tarbiyani – to'qqizinchini mo'jiza, deb atagan edik. Bilsangiz, olim ham, yozuvchi-yu shoir ham, bilingki, yaxshi rahbar ham yoshligida olgan tarbiyasi tufayli niyatlariga yetib, el orasida obro' topganlar. Biz ham seni ana o'shalar kabi inson bo'lishingni istab, oq qog'ozga ko'z nurimizni to'kmoqdamiz.

To'qqizinchini mo'jizaga erishish uchun o'qib uqimoq, uqib o'qimoq kerak. To'g'ri, ba'zi bir yoshlarga nasihat yoqmaydi, ammo quloqsiz bolagina nasihatga quloq solmaydi. Hazrat Navoiy bobomiz shunday deydilar:

Bo'lmas odobsiz kishilar arjumand,
Past etar ul xaymini charxi baland.

Ayniqsa, farzand o'z ota-onasi oldidagi odobi borasida juda-juda ehtiyotkor bo'lishi lozim. Xoh qiz, xoh o'g'il bo'lsin, ona oldida bosh egib turishi, ota oldida «uf» tortmasligi, kekkaymasligi, xato qilsa, darhol kechirim so'rashi, yuziga tik boqmasligi kerak.

«Qobusnoma»ni o'qiyamiz:

«Ota-ona aslida seni jon va dil bilan parvarish qilishdir. Agar ular haqida kamchiliklar qilsang, sen hech yaxshilikka sazovor emasdursan».

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.
Tun-u kuningga aylagali nur-posh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Hazrat Navoiy bobomiz sizlarni ota-ona hurmatini doimo bajo keltirishingizni, o'z'laringizga farzandlardan omonat qaytishini aytib, yana shunday deydi:

Farzandki ato qulligin odat qilgay,
Ul odat ila kasbi saodat qilgay.
Har kimki atoga ko'p duobad qilgay,
O'g'lidan anga bu ish sarobat bo'lg'ay.

Benazir inson, zukko adib Shuhrat domla shunday deganlar:


Ota-ona tanlamoq
Farzand izmida emas.
Ular undog va bundog
Deydi faqat pas, nokas!

Ota-onani sharafdash, ularning og'irini-yengil qilish, xastalanib qolganda, qalblariga malham bo'lish, qariganlarida izzatda tutish har bir farzandning burchidir.

Yosh do'stim!

Bu dunyoda hech narsa beiz ketmaydi. Sen bugun ota-onangni e'zozlasang, ertaga seni dunyo boshiga ko'taradi.

QADAMLAR



Ona o'g'ilchasini ko'tarib sayrga chiqdi. Toza havo, quyosh charaqlab turibdi. Ikkalasinig ham kayfiyati chog'. Farzand ona bag'ridan otilib chiqaman, deydi. Yerga, ona zaminga talpinadi. Ona esa sevimli bolasini qo'ygisi yo'q. Ikki qo'li bilan avaylab ushlagancha, oppoq yuzidan cho'lp-cho'lp o'pib qo'yadi.

Bolakay esa tipirchilaydi. Yerga intilaveradi, intilaveradi... Noiloj o'g'lining qo'lidan ushlab, tik turg'izib qo'ydi. O'g'lon oyog'i yerga tekkanidan shunday quvonib ketdiki, bu shodlikni u dunyoga kelganidan beri hali his qilmagan edi.

– Atak-chechak, atak-chechak...

Ona bolakayning qo'lidan ushlab, qadam tashlashga yordamlashar, bolakay esa yiqilay-yiqilay deya ohista odimlardir. Bir, ikki, uch...

Ona lablari pichirlardi:


– Oyog'ing ostida piyondo bo'lsin ona tuproq, hech charchamagin, o'g'lonim! Suv keltirdim – yo'ling yorug' bo'lsin, non ulashdim – yurtimizda tinchlik, to'kin-sochin bo'lsin, deb...

Ona o'g'lini ko'tarib olmoqchi bo'ldi. Bolakay yana ko'nmedi. Oldinga intilaverdi, intilaverdi. Yana va yana qadam tashlashni, o'zi erkin yurishni istardi. Birinchi qadamni tashladi, o'zini tuta olmadi, yiqildi. Ona yordamlashdi. Yana qaddini rostlab, yurishga chog'landi. Ikkinchi qadamni tashladi, yana yiqildi. Jajji qo'llarini yerga tirab, o'zi turmoqchi bo'ldi. Eplay olmadi. Yana ona yordamlashdi.

Go'dakning ilk qadamlari. Dadil, o'zgacha, har bir qadamga o'xshamagan, hayiqish bilan tashlangan qadamlar. Bu qadamlar keyinchalik ham shunday ehtiyotkorlik bilan tashlansa, qaniydi!

Aziz bolajonlar, dunyoda ikki toifa insonlar bo'ladi: ayrimlar arziyas mehnatlari evaziga shon-shuhrat, hurmat-e'tibordan umidvor bo'lib yashasalar, ikkinchi toifa insonlar borki, kamtarona mehnatlarining o'ziyoq ularni bunday ehtiromga loyiq qilib qo'yadi. Jabbor aka Razzoqov ikkinchi toifaga mansub insonlardan biri. Bu nom otanalarigizga juda yaxshi tanish. Chunki Jabbor aka bir necha yillar muqaddam sevimli gazetangizga Bosh muharrirlik qilganlar. Ayni kunlarda ham «Tong yulduzi»ning qo'lingizga yetib borishiga mas'ullar. Bu insonni yaqindan tanimaganimizda, ular 60 yoshni qoralabdilar, deyishsa hecham ishonmagan bo'lardik. Doimo shunday yosh, tetik va bardam bo'lib, siz-u biz uchun qayg'urib, qalam tebratib yuraversinlar!

Bobomizni qutlaymiz!



Suratda: Jabbor aka suyukli nabiralari davrasida

... Qarib qolgan o'rik daraxti ostida esa bir necha yosh niholchalar o'smoqda edi.

Jabbor RAZZOQOV

MUSTAQILLIK TENGDOSHLARI



Yoshlarning kirish imkoniyati yaratib berildi. Ular berilgan moddiy-ma'naviy, bunday imkoniyatlardan juda ham mamnundirlar. ijtimoiy-huquqiy – Men 1-sentabrda 16 yoshga to'ldim, – deydi qiziqishlari va S.Rahimov kasb-hunar kolleji 1-bosqich talabasi xohishlarini qo'llab Fazliddin Akbarov. – Mustaqillik tengdoshi bo'lganimdan faxrlanaman. Bizga ko'rsatilayotgan e'tibordan juda ham xursandman. Kollejda eng iqtidorli talaba bo'lishga va jamoat ishlarida faol qatnashishga, ustozlarimni yuzini yerga qaratmaslikka so'z beraman.

Muhammadislom ZOHIDOV

DANAK

Uyimizning oldi o'rikzor. Bahor keldi deguncha bog'imiz gulga burkanadi. Unga qarab hammaning havasi keladi. Oq o'rik, ayniqsa, menga yoqadi. Mevasi kichikkina bo'lsa-da, juda shirin, mag'zi esa mazali. Pishganida hosili yerga tushmas, novdalarning o'zida turshakka aylanadi.

Pishiqlik mavsumida shahardan mehmonlar kelishadi.

Otam bo'lsa mehmonlarni har doim o'rikdan tatib ko'rishga taklif qilar, «ajoyib, a'lo nav», deb maqtardi. Ular ham otamga qo'shilishib maqtab, oltinrang o'riklarni tanovul qilishardi.

Bu voqea batamom yodimdan ko'tarilib ketgandek edi. Bahorda qo'shnimiz Mavlon buva bilan bog'imizni oralab yurib, o'sha o'rik oldiga kelganda esimga mehmonlar tushib ketdi. Ular o'riklarni yeb, ulotqirgan danaklaridan nihollar unib chiqqan edi. Shunda buvamning: «Ayrim odamlarga hayron qolasan, o'rigini yeyishadi-yu, danagini ulotqirishadi. Ammo bu danaklar unib chiqqach, ikki-uch yildan so'ng mazali o'rik bo'lishini xayollariga ham keltirishmaydi», degan gaplarini eslab qoldim.

Buvam bilan birga egat olib, hamma nihollarni qayta ekib chiqdik. Ularni alohida parvarish qila boshladik. Bir necha yildan so'ng ayni bug'doy pishig'ida buvam nihollarni payvand qildi. Bir oyga qadar payvand qilingan joyni muttasil namlab turdik. Asta-sekin payvandga jon kirib, kurtak yoza boshladi.

Qishloqqa borganimda, o'sha o'riklarni ko'rmasdan qaytmayman. Mehnatim singanidanmi yoki buvamning sabog'imi, o'riklar oldiga boraman. Oltinday o'riklarni mazza qilib yeyman va danaklarini avaylab olib qo'yaman. O'riklarni yeb, danaklarini har tomonga o'tayotgan, tosh bilan chaqayotganlarga ayanch bilan qarayman.

Bunga ham ancha yil bo'ldi. Yaqinda yana qishloqqa bordim. O'sha o'riklar ostida yerda toptalib, tuproqqa qorishgan danaklarni ko'rdim.

Bir davradagi suhbatda esa shunday so'zlar qulog'imga chalindi: «Mavlon buvaning o'rigi eng yaxshi navdan edi-ya, essiz, qarib qolibdi...»

MUSTAQILLIK TONGI

Mustaqillik tongi otgan kun,
Quyosh ko'kdan kulib boqqan
kun.

To'rg'aylarning ovozi dilbar,
Mayin esar noz ila ellar.
Quvonchlarim ortgandan ortib,
Qalb torini ketaman chertib,
Ortar shunda yashashga havas,
Ozod yurtidan olganda nafas.
Sevinchlarga to'lib yuraklar,
Quloch yozar orzu tilaklar.
Erksizlikka dedik alvido,

Undan qoldi mash'um bir sado.
Endi qaytmas u mudhish tunlar,
Zor qaqshatgan qatag'on kunlar.
Hur Vatanda yelkama-yelka,
Bizni qutlar ajoyib o'lka.
Yaxshilar ko'p bahodir savlat,
Qalblarida bir buyuk davlat.
O'zbekiston atalmish oti,
Yer yuzining yuksak qanoti.

Doston ESHMATOV,
Xalq ta'limi a'lochisi

NONPOLVON VA TEMIR ION BIZGA DO'STDIR MEHRIBON

Tuzel qishlog'ilik Muborak, Munisa, Azizxon, Faxriddin degan bolalardan qon analizi olgan shifokor ular organizmida temir tanqisligi - kamqonlik xastaligi borligini aniqladi.

- Endi nima qilamiz, bolalarimizni qanday qilsak, sog'lom bo'lishadi? - tashvishlanib so'rashdi onalar.

Shifokor ularga yo'l-yo'riq ko'rsatdi. Oradan uch oy o'tib qayta tekshiruvdan o'tgan bolalarning qon tarkibidagi gemoglobin 110-115 g/l ni tashkil qilgani aniqlandi.

- Bu boshqa gap, Nonpolvonga do'st bo'lib, o'zingiz ham pahlavon bo'libsiz, - dedi shifokor mamnun jilmayib.

Xo'sh, ularning qanday qilib ikki yuzi naqsh olmay qizil, o'zlari xushchaqchaq, serg'ayrat bo'lganliklarini bilishni istaysizmi? Unda ularning hikoyasiga quloq tuting:



Muborak SODIQOVA:

- Men anchagina injiq qizcha edim. Faqat oppoq undan pishirilgan non-u pechenyelarni yerdim. O'zim oyimning katta qiziman. Ularga dastyor bo'lgim kelardi-yu, lekin sal ish qilsam, charchab, hansirab qolar, yotib olgim kelaverardi. Buning ustiga,

boshim ham tez-tez og'rirdi.

- Men kerakli dori-darmonlarni yozib beraman. Lekin eng muhimi, qizingizni to'g'ri ovqatlanishiga e'tibor bering, - dedi shifokorim Gulnora opa.

Shundan keyin oyijonim ovqat paytida biz bolalarga choy o'rniga kompot yoki qaynatilgan suv beradigan bo'ldilar. Chunki choy shifokorlar tilida «ingibitor» ekan. Bu degani, u organizmga ovqat bilan so'rilishi kerak bo'lgan temir moddasini 30-70 foizgacha kamaytirib yuborarkan. Odam har kungi harakati tufayli organizmdagi 1 mg. temir moddasini sarf qilar ekan. Biz bolalar esa kattalarga qaraganda ancha serharakatmiz. Demak, bolalarda u yanayam ko'proq sarf bo'lsa kerak. Albatta, buni o'rnini to'ldirmasak, ya'ni ovqat paytida kofe, kakao, choy ichib uni parchalab yuboraversak, ana shu xastalik - temir tanqisligi - kamqonlikka duchor bo'lar ekanmiz. O'zbekistonimizdagi 57 foiz bolalar ana shu xastalikdan azob chekayotgan ekan.

Men shifokor ona aytgan gaplariga amal qilib, sog'ayib ketdim. Endi ishtaham yaxshi, tirnog'im ham oldingiday sal narsaga sinib ketmayapti, boshim ham og'rimayapti. Mana ko'rasiz, endi men eng chaqqon qiz, eng faol o'quvchi bo'laman.

Fazliddin HAYDAROV:

- Men kesak yeyishni, qog'oz chaynashni yaxshi ko'rardim. O'qituvchimizning bo'rini yeb qo'yib, bolalarga rosa masxara bo'lganman. Tag'in dadam mashinasiga benzin quysalar, yugurib borib mazza qilib hidlab, necha marta ulardan ham gap

eshitganman.

Shifokor maslahati bilan oyim b i z g a m o s h , loviyadan ko'p-ko'p ovqat pishirib berdilar. Dadam ustiga «Boyitilgan un» yorlig'i yopishtirilgan bir qop un olib keldilar.

- «Sog'lom mahsulotlar» belgisi bu undan oyingiz sizlarga shirin kulchalar, pishiriqlar pishirib beradilar. Ularni yegan bolalar esa polvon bo'ladi, shuning uchun ham unni Nonpolvon deyishadi, - dedilar.

- Dada, unga qancha temir qo'shilgan, uni ko'rsa bo'ladi? - so'radim.

- Temir emas, temir moddasi qo'shilgan. U ko'zga ko'rinmaydi. Chunki 1 tonna unga atigi 150 gr. temir va foliy kislotasi qo'shiladi.

- Nonpolvonga do'st bo'lsam, kesak, bo'r yemaymanmi?

- Ha, - kuldilar dadam, - tokchamizni bir chekkadan yeb qo'yganingda, nega bunday qildi, deb o'ylamabmiz ham, shifokorga uchramabmiz. Loqaydligimiz uchun bizni kechir, bolam. Bundan keyin Xudo, xohlarsa, toychoqdek uchqur bo'lasan, eslash qobiliyating ham kuchli bo'ladi.

- Unday bo'lsa, she'rlarni ham yodlay olarkanman-da.

- Bo'lmasam-chi, Nonpolvon xotirani mustahkamlaydi, dangasalikni quvadi.

Dadam rost gapirgan ekanlar. 1-navli boyitilgan O'zbekiston uni sal qoraroq bo'lsa-da, juda shifobaxsh ekan. Oyim bu unni «Xonaki do'xtirim», deb ardoqlaydilar. Negaki, temirga boyitilgan un bizni boy qildi. Axir dunyoda sog'liqdan ortiq boylik bormi?

Muhabbat HAMIDOVA



O'QUVCHI BOLALARGA E'TIBOR

Yangi o'quv yilidan boshlab Rossiya, xususan, poytaxt Moskvadagi bufetlarda shirinliklar, chipslar va gazli ichimliklar sotish qat'iy man etiladigan bo'ldi. Moskva shahar hukumati bu borada maxsus qaror qabul qildi. Bu ichimliklar o'rniga yodga boy bo'lgan ichimliklar va foydali oziq-ovqatlar o'quvchilarga havola etiladi. Hozirgi kunda o'quvchi bolalar uchun 24 kunlik oziq-ovqatlar taomnomasi ishlab chiqilmoqda.

Xalqaro miqyosda kam ta'minlangan oilalarning bolalari uchun eng arzon narxda «OLPC XO-1» markali kompyuter yaratilmoqda. Bu loyihani amalga oshiruvchilari uning bahosini dastlab 100 AQSH dollari miqdorida baholashgandi. Shu yilning bahorida esa uning narxini 176 dollarga chiqarishdi. Yaqinda loyihaning texnik ijrochisi uchun mas'ul rahbar Meri Lu Jepsen ushbu kompyuterning bahosini 350 dollar bo'ladi, deb e'lon qildi. Yangi yil boshlarida ishlab chiqariladigan va bolalarga mo'ljallangan ushbu arzon kompyuter narxi yana oshirilmasa bo'lgani.

Bu ajib dunyo

KULGI OG'RIQNI QOLDIRADI

Shvetsiyalik shifokor Lars Lyundaxning kasalxonada o'tkazgan tadqiqotlaridan aniqlanishicha, kulgi kishi tanaqidagi og'riqni birmuncha yengillashtirarkan. Ispaniyalik olimlarning fikricha ham kulgi vujudagi biologik jarayonni tezlashtirib, ko'krak qafasi muskullari va yurak-qon tomirlarini chiniqtirarkan.

NAJOTKOR KOPTOK

Shvetsiyada suvga cho'kayotgan odamlarni qutqarish uchun kichkinagina koptok ixtiro qilingan. U suvga tashlansa, uch sekunddan keyin ichi gazga to'lib, najotkorga aylanadi. Bu koptok odamni bir necha soat davomida suv yuzasida tutib turishi mumkin.

HUSHTAK CHALGAN BOLAGA QANDAY QARAYSIZ?

Keksalarning «Hushtak chalma, shaytonni chaqirgan bo'lasan», deganini ko'p eshitgansiz, albatta. Hushtak chalishning miya faoliyatiga, asab tolalariga (va ko'zga ham) sezilarli salbiy ta'siri bor. U musiqaning aksi. Ko'p hushtak chalish ko'zni tindirib yuboradi, odamni faromush qilib qo'yadi, asablarni taranglashtirish esa shaytonni chaqirish bilan barobar.

MEVA TERADIGAN MASHINA

Germaniyada meva uzish uchun uchta ko'chma savatchasi bo'lgan gidravlik ko'targich yaratilgan. Savatchalarni pastga yoki balandga qo'zg'ash uchun pedalni bosish kifoya. Unga yengil avtomobil dvigateli o'rnatilgan.

TELEFONDA SO'KINISH TAQIQLANADI

Amerika Qo'shma Shtatlarida telefonda so'kinib gaplashish taqiqlanadi. Kimki ushbu qoidani buzsa, o'sha abonent darhol abonentlik ro'yxatidan chiqarilib, telefoni uzib qo'yiladi.

Majburiy bo'lsa-da, xushmuomalalik baribir yaxshi-da! Telefonda odob doirasida gaplashganga nima yetsin?!

TUXUM ARCHADIGAN MOSLAMA

Bitta yoki bir necha pishgan tuxumni archish odamga malol keladigan ish emas. Xo'sh, minglab tuxumni archish zarur bo'lib qolsa-chi? Germaniyada bu muammoni tezda hal qilishning yo'li topildi. Pishgan tuxum maxsus mashinaning teshigiga qo'yilib tugma bosilsa, tuxumning po'sti darrov ajrab chiqadi.

G'ALATI APPARAT

Anchadan buyon ko'chaga chiqmay siqilib o'tirgan ukalari biror o'yin-ermak ilinjida darrov yugurib chiqishdi. Ammo akaning vajohatini ko'rib, bir zumda ikkovining ham hafsalasi pir bo'ldi.

- Kim qildi buni? - Azamat devordagi yozuvga qo'lini bigiz qilib so'radi. Ukalaridan hech qanday sado chiqmadi.

- Kim qildi deb so'rayapman? - Azamat battar zug'um qildi.

Alisher bilan Asil xuddi oldindan maslahatlashib olgandek, yerga tikilishdi. Anora bo'lsa akalari ko'zlarini mo'ltiratib, hayron tikilib turardi.

- Senlardan so'rayapman, kim yozdi? - dedi Azamat xunob bo'lib. - Asil, balki sen yozgandirsan?

- Men yozmadim, - dedi Asil zo'rg'a shivirlab.

- To'g'risini ayt!

- Men yozmadim.

Ukalar orasida eng sho'x, olovi Asil edi. Shuning uchun ham Azamat eng avvalo undan shubhalandi. Asildan boshqa javob ololmasligiga ko'zi yetgach, Alisherdan so'radi:

- Sen yozdingmi?

- Men yozmadim.

- Aldama, rostini ayt!

- Men yozmadim.

Alisher ham hadiksirab, bosh ko'tarmay gapirdi. U aka-ukalariga qaraganda ancha vazmin bo'lsa-da, hech kimning xayoliga kelmaydigan g'aroyib narsalarni o'ylab topishga usta edi. Bir gal tillaqo'ng'iz tutib olib, ayvonda unga maxsus in qurgan, ipdan havo yo'llari yasagan va bu nimasi deb so'rganlarga ana bu yo'ldan ovqatlanishga, bunisidan sayr qilishga, unisidan ov qilishga boradi, deya o'zicha tushuntirib ham bergan, topqirligiga hamma qoyil qolgan edi.

- Sen ham yozmagan bo'lsang, unda Anora yozibdi-da? - dedi Azamat kesatib.

- Men yozmadi-im! - dedi Anora jon holatda baqirib.

Shodmon OTABEK



(Hikoya)

Davomi bor.

Davomi. Boshi
32-sonda.

MATEMATIK BOSHQOTIRMALAR



«ЯНГИ АВЛОД - 2007»

РЕСПУБЛИКА БОЛАЛАР ИЖОДИЁТИ ФЕСТИВАЛИ

3 йил ичида фолкблар сони - 384 та!
 ЭШИНИТ 6 дан 14 гача бўлса,
 СЕН ХАМ ФОЛКБЛАР ҚАТОРИГА ҚЎШИЛ!

- Уз йўналишини танла:
- Муқосса чолғу асбоблари (фортелиано, торги, зарбги ва бошқа соғлар)
 - Миллий чолғу асбоблари (торги, чергиб чағинадан, зарбги соғлар)
 - Вокал (анъанавий киро, академик киро, эстрада)
 - Равз (англиз, бал, спорт, замонавий рақслар, балет)
 - Амалий ва тасвирий санъат
 - Шерият, насрий асарлар ва сахна асарлари

АРИЗАЛАР


2007 йил 1 августдан 1 октябрга қадар

«Келажак овози» Ёшлар ташаббуслари марказининг ҳудудий бўлиmlари ва «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг вилоят, туман ва шаҳар бўлиmlларида қабул қилинади.

СЕНИНГ ИҚТИДОРИНГ + БИЗНИНГ ҚУМАТИМИЗ

УМУМИЙ ҚАЛАБАМИЗ!!!

Батафсил маълумот учун телефон:
 (998-71) 142-08-83, 142-05-56
 www.fundforum.uz
 e-mail: funduz@mail.ru




SOAT ICHIDAGI JUMBOQ

Soatni teng ikki bo'lakka shunday bo'lingki, har ikki bo'lakdagi raqamlar yig'indisi bir xil bo'lsin.

OTANING FARZANDLARI NECHTA?

Ota o'limidan avval farzandlariga boyliklarini teng taqsimlab, meros qoldiribdi. Uning 9 nafar o'g'li va har bir o'g'lining bittadan singlisi bor ekan. Otaning nechta farzandi bo'lgan?



2	4	6
	3	


SIRLI KATAKCHA

Sirli katakchadagi har bir qator, ustun va diagonalidagi sonlar yig'indisi bir xil bo'lsin. Siz barcha sonlardan faqat bir martagina foydalana olasiz.

«BILIM MASKANI» AYLANMA KROSSVORDI

Shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalashida:

1. Bilim olishdagi eng birinchi darslik.
2. O'tilgan darslar, o'quvchilar davomati qayd etib boriladigan daftar.
3. Ma'lum bir fanga oid o'quv qo'llanma.
4. To'rt arifmetik amalning biri.
5. O'quvchilar darsda bor yoki yo'qligini aniqlash uchun ro'yxat bo'yicha aytib chaqirish.
6. O'tiladigan darslar kuni va payti ko'rsatiladigan ro'yxat.
7. Dars mashg'ulotlari olib borish uchun ma'lum tartibdagi tasdiqlangan yo'l-yo'riq.
8. Ta'lim-tarbiya maktab ishlarini boshqaruvchi davlat muassasasi.
9. Yozuv ashyosi.
10. Ma'lum sonlar va tegishli munosabatlar asosida noma'lum sonlarni topish haqidagi matematik vazifa.
11. Maktabda bilim olayotgan farzand.
12. Qo'shiqning takrorlanadigan qismi.
13. Barcha nuqtalari markazdan barobar uzoqlikda bo'lgan yopiq egri chiziq.
14. Atrof muhit hodisalari va qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.
15. Kompyuterning printer qurilmasi qismi.
16. Tilshunoslikning so'zlarni tovush tomonidan o'rganuvchi bo'limi.
17. Tirik organizmlarning hayoti va o'sishi qonuniyatlarini o'rganuvchi mutaxassis.
18. To'g'ri to'rtburchakning tomonlaridan biri atrofida aylanishidan hosil bo'lgan geometrik jism.
19. O'lchash, sanash mumkin bo'lgan narsalar soni.
20. O'quvchilarga dam olish uchun beriladigan davr.
21. Vatanimizda joriy qilingan tizimga ko'ra maktabni bitirgandan so'ng bilim va hunar o'rganish davom ettiriladigan maskan.
22. Yer shari nusxasi, jo'g'rofiya o'quv quroli.



23. Oddiy kasrda butunning nechaga bo'linganligini ko'rsatuvchi raqam.
24. Doira o'lchovi birligi.
25. O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotining maktablardagi boshlang'ich bo'g'ini.
26. Bir nuqtada kesishgan ikki chiziq orasidagi

- tekislik.
27. Kompyuter qurilmasi qismi.
28. Chizmachilik asbobi.
29. Materiyaning tuzilishi va xususiyatlari, uning harakat qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



BOSH MUHARRIR:
 To'lqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
 Turobjon JO'RAYEV, Dilbar ALIMJONOVA, Qahramon QURANBOYEV, Jabbor RAZZOQOV («O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari), Dilmurod RAHMATILLAYEV, Dilshoda DADAJONOVA, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Sobirjon SHARIPOV, Ergashvoy SARIQOV.

Manzilibiz:
 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Obuna indeksi: 198. e-mail: tong1924@mail.ru Tel: 144-27-25 144-63-08 Tel./ faks: (99871) 144-38-10

Rassom:
 Feruz MATYOQUBOV

Noshir:
 «O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi. Gazeta «O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. Adadi - 19010 Buyurtma N: J 4016

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
 Foziliddin SHOYODGOROV
 Navbatchi:
 Sayyora JO'RAYEVA